



DIPLOMA

TA'LIM FIDOYILARI



Nigina Yaxyayeva

RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY ONLAYN JURNALIDA

CHARLZ DIKKENSNING "BUYUK UMIDLAR" VA CHINGIZ AYTMATOVNING "ASRNI QARITGAN

KUN" ASARLARIIDA PORTRET VA PEYZAJ TASVIRINING MUSHTARAK ELEMENTLARI

NOMLI MAQOLASI BILAN ISHTIROK ETGANI UCHUN
TAQDIRLANADI

Bosh muharrir:
A.A. Abdurahmonov



2022/ MAY



MAY

2022

TA'LIM FIDOYILARI

RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI



Google
Scholar



CiteFactor
Academic Scientific Journals




ERLENINKA



IJIFACTOR
INDEXING



REANDPUB.UZ



«TA'LIM FIDOYILARI»
ILMIY-USLUBIY JURNALI
BARCHA SOHALAR BO'YICHA
5-SON, 2-JILD MAY 2022 2-QISM



WWW.TALIMFIDOYILARI.UZ
TA'LIM FIDOYILARI

ISSN: 2180-2130
VOL.1, ISSUE 1
MAY (2022)





47	BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA KO'RGAZMALILIKDAN FOYDALANISH AHAMIYATI VA UNI QO'LLASH Kaxorova Dilafuz Nuriddinovna	248
48	Charlz Dikkensning "Buyuk umidlar" va Chingiz Aytmatovning "Asrni qaritgan kun" asarlarida portret va peyzaj tasvirining mushtarak elementlari Nigina Yaxyayeva	252

Charlz Dikkensning "Buyuk umidlar" va Chingiz Aytmatovning "Asrni qaritgan kun" asarlarida portret va peyzaj tasvirining mushtarak elementlari

O'zbekiston Respublikasi IIV Buxoro AL ingliz tili fani o'qituvchisi

Nigina Yaxyayeva

Annotatsiya:

Sharq va G'arb adabiy-badiiy munosabatlari (adabiy hamkorligi va adabiy ta'siri) masalasi ko'p vaqtlardan buyon olim-u ijodkorlarni qiziqtirib keladi. Adabiyotshunoslik sohasidagi muhim vazifalardan biri ham aynan sharq va g'arb o'rtaсидаги adabiy aloqalarni va ularning hamkorlikdagi rolini o'rganishga qaratilgan desak hech mubolag'a bo'lmaydi. O'zbek adabiyotshunoslida ham so'nggi yillarda g'arb yozuvchi-yu shoirlarining asarlarini tahlil qilish, qiyosiy o'rganishga qiziqish bir qadar kuchaygani sezilmoqda. Ushbu maqolada Charlz Dikkensning "Buyuk umidlar" va Chingiz Aytmatovning "Asrni qaritgan kun" asarlarida portret va peyzajning inson ruhiyatiga ta'siri, ushbu ikki asardagi o'xshash mavzu, syujet, motiv hamda obrazlar tarkibi qiyosan o'rganilgan va o'zaro adabiy aloqa ko'plab jabhalarda mavjud ekanligi asarlardan keltirilgan namunalar misolida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: qiyosiy-tipologik metod, portret, peyzaj, dinamik va statik portret, ijtimoiy-tipologik o'xshashlik, adabiy-tipologik o'xshashlik, psixologik-tipologik o'xshashlik, syujet, motiv, kompozitsiya, komparativistika.

Qiyosiy adabiyotshunoslikda ikkita adib asarlarini qiyosiy tahlil qilishda to'rt xil vaziyatga ahamiyat qaratiladi. Ulardan biri har xil makon va zamon adabiy hodisalarini qiyoslash jarayonidir. Bunda turli muhit, makon va turli zamon adabiy hodisalarini taqqoslanadi. Bu vaziyat qiyosiy tahlil metodologiyasi va metodikasi uchun eng murakkabi sanaladi. Masalan, Shekspir va Alisher Navoiy asarlarida ma'rifat talqini yoki Abdulla Qahhor va Jek London asarlarida badiiy psixologizm masalasini o'rganish uchun quyidagilarni hisobga olish kerak: Birinchidan, qiyoslanadigan hodisalarning mohiyatini tushunish lozim. Ikkinchidan, qiyosiy tahlil obyektlari mavjud bo'lgan oldingi sharoitlar va muhitlarni ham qadar chuquarroq o'rganish, ularning Shekspir va Navoiy yoki



Abdulla Qahhor va Jek London dunyoqarashiga ta'sirini olib berish darkor. Chunki har xil zamон va makonda yashab ijod etgan adiblarning asarlarini mashhurlikdan boshqa yana nima birlashtirib turganini bilish uchun ko'pgina adabiy hodisalarni yuzaga chiqarish lozim. Qiyo slash obyektlarining makon-zamon ko'rsatkichlari munosabati bilan, tahlil qiluvchining oldida ko'plab qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Ammo qiyo slanadigan adabiy hodisalarning rivojlanish jarayonida vujudga keladigan vaziyatlarning xususiyatlari hisobga olinsa, ularni hal etish mumkin. Agar qiyo siy yahongga qo'limizni "pardalar qilib" qarash odatini tark etish, birov: bu reaksiyon narsa, bu olabo'ji, desa basir bo'lib ishonib ketavermaslik.^{ss}

Men adabiyotimizni jahon adabiyotiga qiyos qilar ekanman, Abdulla Qodiriyl, Cho'lp'on va Abdulla Qahhorni eslab g'ururlanaman. Lekin Folkner va Xemingueyni, Kafka va M. Bulgakovni... o'qiganimda adabiyotimizdag'i jo'nlik va zaifliklarni, kitobdan-kitobga ko'chib yuradigan xira siymolarni eslab xunob bo'lamani. Bundan qutulishning yo'li - yorug' jahonga qo'limizni "pardalar qilib" qarash odatini tark etish, birov: bu reaksiyon narsa, bu olabo'ji, desa basir bo'lib ishonib ketavermaslik.^{ss}

Adabiyotshunoslikda badiiy ijod mahsuli bu - badiiy asar. Badiiy asarning eng xarakterli xususiyatlaridan biri shundaki, unda inson ruhiy olami butun murakkabliklari, ziddiyatlari, butun sehri bilan aks ettirilsagina o'quvchi diqqatini o'ziga jalb eta oladi. Badiiy adabiyotda psixologik-ruhiy tasvirning o'rni benihoya kattadir. Yozma adabiyotda psixologik-ruhiy tasvir tushunchasi ostida adabiy qahramonlarning ruhiy olami, ichki dunyosi, orzu-o'ylari, kechinmalari, kayfiyatları hamda intilishlarini yuksak badiiylik asosida tasvirlash san'ati yotadi. Charlz Dikkensning axloqiy va estetik idealining tabiatini yozuvchining dunyo va inson haqidagi o'ziga xos tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Burjuva jamiyatini tanqid qilgan Dikkens o'z qahramonlarini xalq ichidan eng yaxshi axloqiy fazilatlar bilan ta'minlagan, burjuaziya va aristokratiya vakillarini, qoida tariqasida, ikkiyuzlamachi va shafqatsiz qilib tasvirlagan. Ushbu qarama-qarshilik Dikkensga xos bo'lgan va klassik ingliz san'ati uchun an'anaviy bo'lgan axloqiy normalar



va estetikaning birligi g'oyasiga asoslanadi. Dikkens asarlariga murojaat qilar ekanmiz, voqelikni tanqidiy tahlil qilishning mustahkam axloqiy qadriyatlarni tasdiqlash bilan uyg'unligi – yozuvchi ijodiy uslubining yetakchi xususiyatlaridan biri bo'lganligiga guvoh bo'lamic. Axloqiy va estetik ideal Dikkens ijodida ijtimoiy adolatsizlikka qarshi samarali norozilik sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun uning asarlarining axloqiy tabiatini haqidagi hukmlar har doim ham adolatli ko'rinxaydi.

Ushbu maqolada yoritilayotgan asarlarga keladigan bo'lsak, Charlz Dikkensning "Buyuk umidlar" va Chingiz Aytmatovning "Asrni qaritgan kun" romanlari realistik ruhda yozilgan asarlar hisoblanadi. Ikkala 50 Adabiyot – insonni kashf etish, Tal'at Solihov xotirasiga bag'ishlangan memuardan parcha - 65 - yozuvchi ham o'z asarlarida real hayotni barcha g'am-u tashvishlari, o'nqircho'nqirlari bilan tasvirlaydi, har bir voqeani mayda-chuydasigacha, batafsil yoritadi. Asar voqealari dinamik tarzda, sabab va oqibatlar zanjiri uzilmagan holatda bayon etilgan. Romanlar syujet jihatidan to'liq o'xshash bo'lmasa ham, ularda mushtaraklik belgilari anchagina. Ayniqsa, qahramonlar portreti, ularning ichki olamiga mos tarzda chizilgan. Masalan, "Buyuk umidlar" romanida Dikkens bosh qahramoni Pipning opasi – missis Jo Garjeringin tashqi ko'rinishi va harakatlarini shu qadar yaqqol tasvirlaydiki, bundan uning fe'l-atvorini tushunib olish o'quvchiga hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi.

Chingiz Aytmatov ijodida ham insonlar dunyosi va tabiat dunyosining birligi asosiy g'oyalardan biridir. Uning ijodi kontekstida apokalipsis markaziy masalaga aylanadi, insonning befarqligi atrof-muhit muammosiga keyinchalik omil bo'ladi, insoniyatni halokatga olib boradi. Apokalipsis mavzusi quyidagi mavzular bilan bog'liq: insonning tabiatga qarshiliği mavzusi; o'tmish, hozirgi va mavzu kelajakdagı vaqtalar, sodir bo'lgan yoki sodir bo'lmoqchi bo'lgan o'sha muammolarning oldindan ko'rish; kelajak avlodlar oldida inson mas'uliyati mavzusi. Bundan tashqari, apokaliptik mavzu ham xotira bilan bog'liq. Xotira shaxsiyatning asosidir odam, uni yo'qotsa, u o'zining "men" ini yo'qotadi.⁸⁶



Turli makon va turli zamonda yashab ijod etgan bo'lishiga qaramay, Chingiz Aytmatov va Charlz Dikkens asarlaridagi eng asosiy o'xshashlik shundan iboratki, ikkala adibning asarlaridagi bosh qahramon – bu halol peshona teri, mehnati bilan jamiyatda o'z o'rmini topishga intiladigan INSON. Xoh yosh bo'lsin, xoh qari. To'g'ri, asar boshida ular o'quvchida butunlay boshqa taassurot uyg'otishi, asl maqsadiga yetishish ilinjida yo'lidan adashishi mumkin, ammo asar yakunida qahramonlar haqiqiy insoniy fazilatlarni o'zida mujassam eta olganiga guvoh bo'lish mumkin. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, na Aytmatov va na Dikkens o'z qahramonlarini ideal, komil shaxs sifatida tasvirlamaydi, ularni boricha, butun kamchiliklari bilan ravon va sodda tilda o'quvchiga tanishtirishga harakat qiladi. Charlz Dikkens va Chingiz Aytmatov romanlaridagi peyzaj tasvirlari esa, sodir bo'layotgan voqealarning to'liq tasvirini beradi, hikoyaning asosiy elementini - har qanday romanning dramatik chizig'inining asosi sifatida qahramonlarning kayfiyati va ruhiy holatini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Adabiyot nazariyasi: 2 tomlik. T.2.—T., 1979
2. Angus Uilson. Charlz Dikkens olami .. - Moskva: "Progress", 1975 y
3. Bakhronova D. Literatura comparada. – Tashkent: Turon, 2019
4. Buckley Jerome Hamilton. Season of youth: the Bildungsroman from Dickens to Golding. Cambridge: Harvard UP, 1974.
5. Ch.Dickens Works of Ch. Dickens. Library ed. Vol. 1-26. London, Chapman & Hall, 1866-1870.
6. Quronov D., Mamajonov Z., Sherlieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. -T. —Akademnashrl, 2010.129
7. Rashidov A. Chingiz Aytmatovning badiiy olami. - T.: O'qituvchi, 2008.
8. Rashidov A. So'nmas yulduzlar. - T.: Adabiyot va san'at, 1981.